



Academia Review-A Multidisciplinary Online Journal

ISSN (Online): 3070-6726

Website: <https://academia.org>

Volume 2, Issue 6, June, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

Abu Bakr Muhammad Ibn Abu Ishaq Kalobadiy Scientific Heritage – In the World’s Perspective

Abdubannoyev Navruzбек

Teacher of the Tashkent Islamic Institute

Abstract

This article examines the scientific legacy of Abu Bakr Muhammad ibn Abu Ishaq al-Kalabazi and his contribution to the development of Islamic thought, particularly Sufism and Hadith studies. It analyzes his life, scholarly activity, works, and the content of his famous book “Al-Ta’arruf li Madhhab Ahl al-Tasawwuf.” The study also provides information about manuscripts, editions, commentaries, and the research of his works by both Eastern and Western scholars. It is emphasized that al-Kalabazi’s legacy is an important source for preserving the authentic essence of Sufism, strengthening Islamic belief, and systematizing religious thought.

Keywords: Kalabazi, Mawarannahr, Sufism, Hadith studies, Al-Ta’arruf, scholarly heritage, Bukhara, creed, Islamic thought, spirituality.

Abu Bakr Muhammad Ibn Abu Is’hoq Kalobodiy Ilmiy Me’rosi – Dunyo Nigohida

Toshkent Islom instituti o‘qituvchisi

Abdubannoyev Navruzбек

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abu Bakr Muhammad ibn Abu Is’hoq Kalobodiy (Kalabaziy)ning ilmiy merosi va uning islomiy tafakkur, xususan tasavvuf va hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi yoritilgan. Allomaning hayoti, ilmiy faoliyati, asarlari hamda “At-ta’arruf li mazhabi ahl at-tasavvuf” kitobining mazmuni va



ilmiy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, uning asarlarining qo‘lyozma va nashr nusxalari, sharhlari hamda G‘arb va Sharq olimlari tomonidan o‘rganilishi haqida ma‘lumot berilgan. Kalobodiy merosi tasavvufning asl mohiyatini saqlash, islom aqidasi mustahkamlash va diniy tafakkurni tizimlashtirishda muhim manba ekani asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Kalobodiy, Movarounnahr, tasavvuf, hadis ilmi, At-ta‘arruf, ilmiy meros, Buxoro, aqida, islomiy tafakkur, ma‘naviyat.

Аннотация

В данной статье рассматривается научное наследие Абу Бакра Мухаммада ибн Абу Исхака Калободий (Калабазы) и его вклад в развитие исламской мысли, особенно суфизма и хадисоведения. Анализируются его жизнь, научная деятельность, труды и содержание книги «Ат-таарруф ли мазхаби ахль ат-суфизм». Также приводятся сведения о рукописях, изданиях и комментариях к его произведениям, а также об их изучении учёными Востока и Запада. Подчеркивается, что наследие Калободий является важным источником в сохранении подлинной сущности суфизма, укреплении исламской веры и систематизации религиозного мышления.

Ключевые слова: Калободий, Мавераннахр, суфизм, хадисоведение, Ат-Таарруф, научное наследие, Бухара, акида, исламская мысль, духовность.

KIRISH

Allomaning to‘liq ismi – Abu Bakr Muhammad ibn Abu Is‘hoq ibn Ibrohim ibn Ya‘qub Al-Kalabaziy (Kalobodiy, Gulobodiy) Buxoriy, hanafiy bo‘lib, “Tojul Islom” unvoniga sazovor bo‘lgan. Olimning qachon tug‘ilgani ma‘lum bo‘lmasada, uning Buxoro shahri yaqinida Gulobod qishlog‘ida dunyoga kelgani manbalarda zikr etilgan. Kalobodiyning tarjimai holiga tegishli ma‘lumotlar manbalarda juda ham kam uchraydi. Bu haqida “At-Ta‘arruf li mazhabi ahl at-tasavvuf” asarining mashhur shorihlaridan biri hisoblangan Mustamliy Buxoriy o‘zining “Sharhu at-Tarruf limazhabi ahli at-tasavvuf” asarida quyidagilarni aytadi:

“Biz Abu Bakr ibn Abu Is‘hoq Kalobodiy Buxoriy haqida kam narsa bilamiz. Uning tug‘ilgan yili haqida ma‘lumot yo‘q. U haqida ma‘lum bo‘lgani narsa shuki – u Buxoroda joylashgan yirik mahalla – Kalobodga mansub bo‘lib, tarixda



bu yerga nisbati berilgan ulamolar juda ko‘plab topiladi. Kalobodiyning vafot etgan yili haqida hijriy 380 jumodul avval oyining 19-sanasi juma kuni aytilgan bo‘lsada, ba’zilar hijriy 384 va 385-yillarni ham zikr qilib o‘tgan”¹. Kalobodiyning bir qancha ta’lif etgan asarlari bo‘lib “معاني الأخبار” – “Xabarlarining ma’nolari” nomi bilan mashhur bo‘lgan “بحر الفوائد” “Foydalar dengizi” asarini tahqiq qilgan olimlar Muhammad hasan Ismoil va Ahmad Fariyd al-Mazidiylar olimning ta’lif etgan asarlariga to‘xtalib quyidagilarni sanab o‘tishgan:

- أربعين في الحديث الأشفاق و الأوتار
- بحر الفوائد المشهور بمعاني الأخبار
- التعرف لمذهب أهل التصوف
- فصل الخطاب
- أمالي في الحديث²;

E’tibor bersak, Kalobodiy asarlarining katta qismini hadis ilmiga oid asarlar tashkil qiladi. Uning ilmiy merosini aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Manbalarda allomaning Imom Buxoriyning “Al-Jome’ as-sahih” to‘plamini sharhlagani aytib o‘tilgan. Afsuski bu asar ham bizgacha yetib kelmagan.

Kalobodiyning mazkur “At-ta’arruf li mazhabi ahl at-tasavvuf” asari Movarounnahrda turli mazhab va ta’limotlar ta’sirida shariat ahkomlaridan uzoqlashib borayotgan tasavvuf talimotining asl holatini saqlab qolishga katta hissa qo‘shgan. Kitob saodat asri deb nomlangan Islomning ilk uch asridagi tasavvuf holatini o‘rganishda juda nodir manba hisoblangani uchun, ushbu sohaga qiziqqan keyingi ulamolar tomonidan katta e’tibor bilan qarshi olingan. Hatto so‘fiy shayxlardan Suxravardiy (rahmatullohi alayh):

“Agar Kalobodiyning “At-ta’arruf” asari bulmaganida edi, biz tasavvuf nima ekanini bilmay qolgan bo‘lar edik”, - deb aytadi.

Sufiylarning fiqhiy va e’tiqodiy qarashlarini, shuningdek, tasavvufga oid amaliyotlar usuli bayon etilgan bu asarda tasavvufning islom aqidalariga to‘g‘ri kelmasligini ta’kidlaydigan kishilarga tasavvuf islom aqidalariga muvofiqligini

¹Abu Ibrohim Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulloh Mustamliy Buxoriy. “شرح التعرف لمذهب أهل التصوف”, Tehron.: Donishgohi Tehron. 2016. – B. 264.

² Muhammad hasan Ismoil, Ahmad Fariyd al-Mazidiy. Shayx Kalobodiyning “بحر الفوائد المشهور بمعاني الأخبار” asarining tahqiqi. Bayrut.: “Dorul kutub al-ilmiyya”, 1999. – B. 392.



ko'rsatib berishga harakat qilgan. Asar 75 bobdan iborat, uni 3 qismga bo'lish mumkin:

birinchi – tarixiy qismida so'fiy va tasavvuf tushunchasiga ta'rif beriladi, mashhur mutasavviflar, ularning tasavvufiy fikrlari haqida hikoya va rivoyatlar; ikkinchi – diniy aqidalarni himoya qiluvchi qismida so'fiylik aqoidi asoslari, mutasavviflar taqvodorligining isboti;

uchinchi – tasavvuf amaliyoti qismida tasavvuf yo'lining asosiy bosqichlari, so'fiylar o'rtasida qabul qilingan ba'zi atamalar bayoni.

Kalobodiyning shaxsi va ilmiy merosi G'arb va Sharq mamlakatlari sharqshunoslari tomonidan ham o'rganilgan. Jumladan, eron, rus va ingliz olimlari o'z tadqiqotlarida allomaning asarlaridan foydalangan. Muhammad Ansoriy Hiraviy, Qoziy Alouddin Ali ibn Ismoil Tabriziy, Muhammad Olim Shoshiy kabi olimlar ushbu asarga bag'ishlab sharh yozganlar.

“التعرف لمذهب أهل التصوف” asarining Bayrut shahri “دار صادر” matbaasida 2001-yil nashr etilgan nusxasi “Muallifning tarjimai holi” qismida nashrga tayorlovchi doktor Yuhanno al-Habib Sodir:

التعرف لمذهب أهل التصوف : الذي اهتم به العلماء شرحا وترجمة حيث شرحه الإمام القونوي (-727 هـ (المسمى حسن التصرف في شرح التعرف وشرح بالفارسية باسم نور المریدین و ترجمه عبد الحليم محمد وطه عبد الباقي إلى الإنجليزية باسم The Doctrine of The Sufism طبع سنة 1936 ، كمبريدج³ “At-Ta'attuf limazhabi ahl at-tasavvuf asarini sharhlash va tarjima qilishga ulamolar katta ahamiyat qaratgan. Jumladan Imom Quvnaviy (727 hij) “حسن التصرف في شرح التعرف” deb nomlangan sharh yozgan, yana uning fors tilida “نور المریدین” nomli sharhi ham bor. Bu asarni ingliz tiliga Abdul Halim Muhammad va Toha Abdul Boqiylar “The Doctrine of The Sufism” - “Sufiylik ta'limoti” nomi bilan tarjima qilgan va bu tarjima 1936-yil⁴ Kembrijda nashr etilgan”, - deb aytadi.

Kalobodiyning ilmiy merosini, jumladan, uning “At-ta'arruf” asarini o'rganishga keyingi paytlarda mamlakatimizda ham jiddiy ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur asarga ko'plab sharhlar yozilgan. Ularning ichida eng bebahosi, shubhasiz, Abu Ibrohim Ismoil ibn Muhammad Mustamliyning (1042 y. v. e.)

³ Abu Bakr Muhammad al-Kalabaziy. التعرف لمذهب أهل التصوف. Bayrut.: “دار صادر”, 2001. – B. 10.

⁴ Tarjimada 1935-yil ko'rsatilgan.



fors tilida yozgan “Nurul muridin” (“Muridlar nuri”) asaridir. Shorih Kalobodiy bilan zamondosh va vatandosh bo‘lgani uchun ba’zi olimlar uni muallifga shogird bo‘lishi kerak deb hisoblashadi. Bu sharh tasavvuf tarixiga oid manba sifatida deyarli “At-ta’arruf” asarining o‘zidan qolishmaydi. Uning fihristlaridan biri 1081 yil 7 aprelda ko‘chirilgan, bu bizgacha yetib kelgan qadimiy forsiy qo‘lyozmalardan ikkinchisi hisoblanadi. “At-ta’arruf” asarining qo‘lyozma nusxalaridan biri Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Qo‘lyozmalar institutida 3154-V tartib raqami ostida saqlanmoqda.

Abu Bakr Kalobodiyning ilmiy merosini chuqur o‘rganagan olimlar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli masalalarga ham oydinlik kiritib ketgan. Shulardan biri mazkur asarlarning haqiqatda Abu Bakr Muhammad ibn Is’hoq (yoki Abu Is’hoq) Kalobodiyga tegishli ekani borasida ba’zi ma’lumotlarni aytib o‘tgan. Muhammad hasan Ismoil va Ahmad Fariyd al-Mazidiy “بحر الفوائد” asarini Imom Kalobodiyga mansubligi haqida Hoji Xalifaning “Kashfuz zunun” da keltirgan ma’lumotlariga tayanib aytadi:

“Biz bu kitobning Kaloboziy Buxoriyga mansub ekanligiga shak-shubha qilmaymiz. Shayx Hoji Xalifa aytadi: “معاني الأخبار” – “Xabarlarning ma’nolari” nomi bilan mashhur bo‘lgan “بحر الفوائد” “Foydalar dengizi” asari Shayx Abu Bakr Muhammad ibn Ibrohim al-Kaloboziy al-Buxoriyga tegishlidir, u 384-yilda vafot etgan”⁵.

Shuningdek ular asarni tahqiq qilishda uning ikki nusxasidan: “بلدية الاسكندرية” nusxasi hamda “دار الكتب المصرية” nusxasidan foydalanganini aytib o‘tganlar.

Imom Abu Bakr Muhammad ibn Abu Is’hoq Kalobodiy mazkur asarida dastlab hadisi shariflarni o‘zining tariqidan rivoyat qiladi, so‘ngra hadisi sharifning lafzlaridan tushunish mumkin bo‘lgan ma’noni zikr qiladi. Garchi mazkur ma’no lafzlarning zohiriga zid bo‘lsa ham. Keyin esa arablarning iste’molida ham ayni lafzlar ayni ma’noda ishlatilganiga ularning mashhur gaplari, masal va matallaridan misollar keltirib asoslab beradi.

⁵Abu Bakr Muhammad ibn Abu Is’hoq Kalobodiy. بحر الفوائد المشهور بمعاني الأخبار. Muhammad hasan Ismoil, Ahmad Fariyd al-Mazidiylar tahqiqi. Bayrut.: “Dorul kutub al-ilmiyya”, 1999. – B. 392.



Yuqorida Imom Kalobodiy hadis ilmida “Hofiz” darajasida bo‘lgani zikr qilindi. “بحر الفوائد” dagi uslub musannifning hadisni rivoyat qilishdan tashqari, uning diroyati – hadisning mazmuni, fiqhini bilishda juda mohir bo‘lganini anglatadi. Hanafiy mazhabining Imom Kalobodiydan biroz avval yashab o‘tgan asrdosh mashhur imomlaridan biri Abu Ja’far Tahoviy (hij. 238-321-yy) ning shoh asari bo‘lmish “معاني الآثار” ham aynan hadislarning ma’nolarini to‘g‘ri tushunishga qaratilgani ma’lum. Demak o‘sha davrda ham hadislarni noto‘g‘ri ta’vil qilish, biror bir hadisni boshqa umumiy hadislarga muvofiq ma’nosi bo‘la turib, unga e’tibor qilmay zohiriy ma’nosiga burib, natijada hadislarni bir-biriga qarama-qarshi ma’nolarga yo‘yib qo‘yish holatlari bo‘lib turgan. Shuning uchun ham ulamolar kitoblarida hadislarni to‘g‘ri, bir-biriga muvofiq ma’nolarga haml qilib, faqat zarurat o‘rnida ya’ni hadislarni muvofiqlashtirishga yo‘l qolmagan vaqtdagina hadislarning taoruzi (qarama-qarshi ma’nodaligi)ni e’tiborga olgan va sabablarini keltirib o‘tganlar. Imom Kalobodiyning hadis ilmiga oid asari ayni mana shu uslubda bitilgan. Bu asarlarning bugungi kundagi ahamiyati yanada ortib ketgani barchamizga ayon.

Bu turdagi asarlarning qiymatini yana bir jihat bilan ochiqlab berish mumkin. Agar musulmonlar diniy manbalarni tushunishda bir asosga murojaat qilamas ekan, ular orasidagi ixtiloflar kuchayib boraveradi, har kim o‘z salohiyati, yaondashuvi, maqsadidan kelib chiqib turli talqin va ta’vil qilaveradi. Shuning o‘zi musulmonlar o‘rtasida katta fitnalarga sabab bo‘ladi, ularni bo‘linib ketishiga, pirovardida taraflarning keskin murosazilikka borishigacha olib boradi. Bu to‘g‘ri maqsadda va xolis yondoshganda yuzaga keladigan xatarli jihatlar, agar bu ishga yovuz maqsadlar va mutaassibona yondoshuvlar aralshsa zarar yanada ortib ketishi turgan gap. Shuning uchun ham bu kabi asarlarning o‘rni shar’iy matnlarni to‘g‘ri tushunish vositasida dinning asl mohiyatini anglashga, musulmonlarning birdamligini ta’minlashga beqiyos xizmat qiladi.

“Kitob at-ta’arruf li mazhabi ahl at-tasavvuf” asarining tarkibini o‘rganishda asar va uning sharlarining qo‘lyozma nusxalari va turli zamonaviy nashrlaridan foydalanildi. Quyida zamonaviy nashrlar bilan tanishib chiqamiz.

Asar Misrning Qohira shahri “مكتبة الخانجي” nashriyotida 1933-yili birinchi nashri, 1994-yili ikkinchi nashri chop etilgan. Uni nashrga tayorlagan britaniyalik



sharqshunos Arthur John Arberry⁶ o‘zining muqaddimasida quyidagilarni aytib o‘tgan:

في تجهيز هذا الكتاب للطبع قابلت نسختين من الكتب المحفوظة في دار الكتب المصرية ونسخة من مجموعة الاستاذ الكبير والمستشرق الشهير الدكتور ر. أ. نكلسون واستخدمت الحروف التالية لايضاح الاختلافات الموجودة بين هذه النسخ:

ق - نسخة محفوظة في دار الكتب المصرية (تصوف ١٧٠ م) وهي مكتوبة في سنة ٧٨٧ هـ

م - نسخة محفوظة في دار الكتب المصرية (تصوف ٦٦ م) وهي مكتوبة في سنة ٧٧٩ هـ

ن - نسخة محفوظة في مجموعة الدكتور نكلسون وهي غير كاملة⁷

Bu kitobni nashrga tayorlashda “Misr kitoblar uyida” – “دار الكتب المصرية” kutubxonasida saqlanayotgan ikki nusxani bir-biriga taqqosladim va – katta professor, doktor Reynold Alleyne Nicholson⁸ majmuasida mavjud nusxasidan foydalandim. Bu nusxalar orasidagi farqlarni izohlash uchun quyidagi harflardan foydalandim:

ق – Misr kitoblar uyida saqlanayotgan nusxa (tasavvuf 170 m), bu nusxa 787-hijriyda yozilgan;

م – Misr kitoblar uyida saqlanayotgan ikkinchi nusxa (tasavvuf 66 m) va u 779-hijriyda yozilgan;

ن – Doktor Nicholson majmuasida saqlanayotgan nusxa, u to‘liq emas;

Livanning Bayrut shahrida “دار صادر” matbaasida 2001-yil birinchi nashri⁹, 2006-yil ikkinchi nashri chop etilgan. Quvonarli jihati shundaki asar O‘zbekistonda ham nashr qilingan. Toshkent shahar “Movarounnahr” nashriyotida O‘zbekiston musulmonlari idorasi Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2017-yil 14-iyuldagi 4826-sonli xulosasi asosida nashrga tayorlanib 2018-yili 1500 nusxada chop etilgan.

⁶ Arthur John Arberry (1905-1969yy) – britaniyalik sharqshunos olim, tasavvuf va fors adabiyoti bo‘yicha mutaxassis, arab tilini Reynold Alleyne Nicholson qo‘lida o‘rgangan.

⁷ Abu Bakr Muhammad ibn Abu Is‘hoq Kalobodiy. التعرف لمذهب أهل التصوف. Qohira. : مكتبة الخانجي. 2011. – B. 144.

⁸ Reynold Alleyne Nicholson (1868-1945yy) – ingliz sharqshunosi, tasavvuf va fors adabiyoti bo‘yicha mutaxassis. Jaloliddin Rumiyning she‘rlarini ingliz tiliga tarjima qilgan.

⁹ Bu nashr Rumo universiteti Ilohiyot fanlari doktori – Yuhanno al-Habib Sodir tarafidan tayorlangan. U avval o‘zining muqaddimasi keyin Kalobodiyning tarjimai holini keltirib o‘tgan. 2006- yilda ikkinchi marta nashr qilingan.



Mazkur nashrlarni qiyosiy tahlil qilish asosida kelingan ba'zi xulosalarni taqdim qilamiz.

Abu Bakr Kalobodiy asarda har bir mavzuni "bob" deb nomlagan. Unda jami boblar soni yetmish beshta bo'lib, mazkur bob (mavzularni) mazmunan uch qismga ajratish mumkin:

- Kirish: tasavvuf, sufiylik mazmuni, nima sababdan bu jamoa "sufiyalar" deb nomlangani, mashhur sufiy kishilar, bu ilmni kitob va risola shaklida tarqatganlar;
- Aqida ilmiga oid boblar: jami yigirma beshta bobda tavhid, Alloh taoloning sifatleri, Qur'on, Alloh taoloning kalomi, oxiratda Haq taoloni ko'rish kabi e'tiqodiy mavzularda tasavvuf ahlining mazhabini bayon qilgan;
- Tasavvuf nazaryasiga oid boblar: kashf, tavba, zuhd, sabr, xavf, taqvo, ixlos, shukr, rizo, zikr, uns, qurb, ittisol, muhabbat kabi bevosita tasavvufning o'ziga xos mavzularni bayon qilgan;

Abu Bakr Kalobodiy islomiy ilmlar ravnaq topib gullagan davrda yashagan. Bu holat unga ko'plab ilmlarni o'z egalari, ya'ni yetuk ulamolardan ta'lim olishiga imkon yaratdi. U o'z zamonasida keng tarqalgan islomiy ilmlar hadis, fiqh, usul, tafsir, aqida va ayniqsa tasavvuf ilmalarini mohir ustozlar qo'lida o'rgandi va bu ilmlarni puxta egalladi. Keyinchalik o'zining ilmiy faoliyati davomida mazkur yo'nalishlarda mashhur bo'ldi. Kalobodiy bu ilmlarni talabalarga dars beribgina qolmay, ularni rivojiga va Movarounnahr mintaqasida keng tarqalishiga xizmat qilgan ilmiy asarlar tasnif qildi.



Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati

1. Abu Bakr Muhammad al-Kalabaziy. التعرف لمذهب أهل التصوف. Bayrut.: “ دار ”, 2001. – 128 b.
2. Abbdulhay Laknaviy. الفوائد البهية في تراجم الحنفية. Bayrut.: “ شركة دار الأرقم بن ”, 1998. – 634 b.
 - a.Hoji Xalifa Mustafafo ibn Abdulloh Halabiy. كشف الظنون عن أسامي الكتب. Bayrut: - 940 b. دار إحياء التراث العربي. والفنون.
3. Ali ibn Muhammad al-Qori. ضوء المعالي شرح بدء الأمالي. Istanbul: “ دار ”, 2017. – 194 b.
4. Shayx Zulfqor Ahmad Naqshbandiy. التصوف و السلوك, – Bayrut: “ المكتبة ”, 2011. – 231 b.
5. Doktor Mahmud Tahhon. تيسير مصطلح الحديث. – Ar-Riyod: Maktabatul maorif linnashr vat tavzi, 2010. – 296 b.
6. Xayruddin Zirikliy. الأعلام. – Misr: المطبعة العربية, 1926. – 1187 b.

Fors tilida

1. Ismoil ibn Muhammad Mustamliy Buxoriy. شرح التعرف لمذهب أهل التصوف. Tehron. : Donishgohi Tehron, 2016. – 264 b.

Ingliz tilida

2. Arthur John Arberry. The doctrine of sufis. Cambridge at the university Press, 1935. – 173 p.

III. Internet saytlari ro‘yxati

3. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. 3. So‘fiy psixologiyasi yoki hol. www.kh-davron.uz
4. Abu Bakr al-Kalabadiy. <https://arboblar.uz>
5. تحميل الكتب أبو بكر الكلاباذي. <https://www.noor-book.com>
6. Reynold A. Nicholson. <https://en.m.wikipedia.org>
7. Arthur John Arberry. <https://en.m.wikipedia.org>